DEPRESSIYA BILAN OG'RIGAN KEKSA YOSHDAGI BEMORLARNING TERAPEVTIK DINAMIKASINI PROGNOZ QILISH

Rajapov M.Sh., Shadmanova L.Sh.
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Kalit so'zlar: depressiya, gamilton, qarilik, neyroprotektorlar, antidepressantlar, qon tomir patologiyasi

Psixoorganik patologiyani davolash quyidagi terapevtik qiyinchiliklar tug’diradi - psixoorganik kasalliklarni davolashda buyuriladigan (nootroplar, bosh miyada qon aylanishini yaxshilaydigan dorilar, xolinergik preparatlar) va antidepressant bilan davolashni hisobga olgan holda dori-darmonlarni buyurish zarurati (Kruglov J.C., 2006). Bunday komorbidlik antidepressantlarni tanlashda cheklovlarni qo'yadi - kognitiv funksiyaga ta'sir qilmaydigan va shu bilan ba'zi nojo'ya ta'sirlar va asoratlarni diagnostikasiga qiyinchiliklar tug'diradi. (Kruglov J.C., 2016 yil)

Tadqiqot maqsadi: Depressiya bilan og'rigan keksa yoshdagi bemorlarning terapevtik dinamikasini o'rganish.

Materiallar va usullar: O'rganilgan bemorlarning asosiy guruhi qon tomir genezli depressiya va psixoorganik sindromi bor bo'lgan 73 ta bemordan iborat. Asosiy 70-79 yoshdagi bemorlar (o'rtacha - 71,06±1,09 yosh). Shu bilan birga, o'rganilgan kuzatuvlarning asosiy qismini ayollar (79,61%) tashkil etdi.

Bemorlarni ushbu namunaga takroriy depressiv buzilishlar, o'rtacha og'irlikdagi depressiv epizod belgilarining mavjudligi (Gamilton shkalasi bo'yicha 15 dan 27 ballgacha) kiritildi. Tadqiqot quyidagi asosiy usullardan foydalangan holda o'tkazildi: 1) klinik-psixopatologik; 2) Gamilton shkalasi (Gamilton M.A., 1960); 3) keksa yoshdagi bemorlarning ruhiy holatini baholash uchun shkalalar SCAG (Shader R.L. va boshq., 1974; Venn R.D., 1983); 4) kognitiv faoliyat MMSE testi (Folstein M.F., Folstein S.E., Hugh P.R., 1975);

Tadqiqot natijalari: Davolash dori vositalaridan foydalanish va psixokorreksiya ta'sirini o'z ichiga olgan. O'rganilgan bemorlarning aksariyati, birinchi navbatda, antidepressant dori vositalarini qabul qilgan (52 kishi - 98,70%). Shu bilan birga, kuzatuvchilarning aksariyat qismida yumshoq, xavfsiz,kam asorat beradigan dorilar bilan davolash amalga oshirildi - 18,44% hollarda SSRI (sertralin, fluoksetin), 13,59% - serotoninni qaytarib olish ingibitori/serotonin antagonisti-trazodon (trittiko), 10,68% - selektiv serotonin qaytarib olish ingibitori va noradrenalin -Venlafaksin (venlafaks, venlaksor). Farmakoterapiya jarayonida o'rganilgan barcha bemorlarga bosh miyada qon aylanishining buzilishi korrektorlari - sinnarizin, vinpotsetin (kavinton), nitsergolin (sermion), pentoksifillin (trental) berildi.

Bundan tashqari, nootroplar (neyrometabolik stimulyatorlar) ishlatilgan. Ular 81,55% hollarda qo'llanilgan. Bularga GAMK - ergik ta'sir qiluvchi dorilar (fenibut, pantogam) va xolinergik ta'sir qiluvchi dorilar - xolin alfosserat (Gliatilin), polipeptidlar (korteksin, serebrolizin), pirrolidon hosilasi (piratsetam), KMOA blokatori-glutamatergik retseptorlar (akatinol memantin), antioksidant – mildronate. Bu tadqiqotga kiritilgan bemorlarning keksa yoshi va ayniqsa ushbu dorilarning bosh miya metabolizmiga ijobiy ta'siri bilan oldindan belgilab qo'yilgan.